

**UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi  
Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani  
o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishiga Urganch  
shahridagi 6-son maktabi musiqa o'qituvchisi Ismoilova Xurshida tomonidan  
T A Q R I Z**

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim. Mazkur kurs ishida musiqa darslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar, musiqa darslarini takomillashtirishda musiqa darsi va musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yiladigan talablar, musiqa o'qituvchisining professional tayyorgarligiga talablar haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Matyokubova Saida kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinni foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejlarda, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402-guruh talabasi Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga kuyishga loyiq deb hisoblayman.



**Ismoilova X.  
Urganch shahridagi 6-son maktabi  
musiqa o'qituvchisi**

**UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi  
Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani  
o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishiga Musiqa  
ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi Kazakov Adilbek tomonidan  
T A Q R I Z**

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim. Mazkur kurs ishida musiqa darslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar, musiqa darslarini takomillashtirishda musiqa darsi va musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yiladigan talablar, musiqa o'qituvchisining professional tayyorgarligiga talablar haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Matyokubova Saida kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402- guruh talabasi Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejlarda, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 402-guruh talabasi Matyoqubova Saidaning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi



**Kazakov A.**  
**UrDU Musiqa ta'limi kafedrası**  
**katta o'qituvchisi**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIU VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MUSIQA TA`LIMI YO`NALISHI

## **KURS ISHI**

***MAVZU: «Musiqqa fani o`qituvchisiga qo`yiladigan talablar»***

Topshirdi:

Matyokubova S.

Qabul qildi:

Narbayev X.O.

Urganch-2016

## Reja:

### Kirish

1. Musiqa darslarini takomillashtirish bo`yicha olib borilayotgan izlanishlar

2. Musiqa darslarini takomillashtirishda musiqa darsi va musiqa o`qituvchisi oldiga qo`yiladigan talablar

3. Musiqa o`qituvchisining professional tayyorgarligiga talablar

### Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

## KIRISH

Hozirgi davrda fan va madaniyatning eng so`ngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo`lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma`naviyat va ma`rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to`g`risida»gi farmonda ko`rsatilgandek, jamiyatda yuksak ma`naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, kishilarni boy madaniy merosimiz tarixiy an`analarimizga umuminsoniy qadriyatlarga, vatanga muhabbat, istiqloq g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning hal qiluvchi omilidir.

Istiqloq sharofati bilan O`zbekiston respublikasida keyingi yillarda muhim ijtimoiy siyosiy o`zgarishlar ruy berdi. Xususan ta`lim to`g`risida qonun qabul qilinib, to`qqiz yillik umumiy o`rta ta`lim tizimi joriy etildi. Ta`limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o`quv fanlari, shu jumladan musiqa darslari bo`yicha ham yangi o`qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bu holatlar milliy musiqa ustivorligi nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilgan dasturlarda ham o`z aksini topdi.

Estetik tarbiya - hissiyotining shakllanishi va rivoji, go`zallikni tushunish va unga tashnalik, shuningdek shaxs tarbiyasining ajralmas qismi bo`lgan go`zallik qonunlari asosida yashash va yaratishga intilishdir.

Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o`quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuzilishi zarur. Mashg`ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik jihatdan o`ziga xosligi, shuningdek ish

rejalari fan mantiqini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko`ra farqlanishi lozim.

O`quvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi estetik qadriyatlarga yo`naltirish lozim. Milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, ayniqsa sharq miniatura san'ati, haykaltaroshlik, musiqa va san'atning boshqa turlari (teatr, sirk va h. k.) xalqning o`tmishidagi va zamonaviy turmush tarzi, yashash joyi, kiyinishi, mehnat qurollari va hokozo.

### **Musiqa darslarini takomillashtirishda musiqa darsi va musiqa o`qituvchisi oldiga qo`yiladigan talablar**

Musiqa fanidan davlat ta'lim standartining joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalanish hamda hududiy vohalar san'ati va madaniyati bilan tanishish imkonini yaratdi, Unda shu erdagi mahalliy xalq an'analari o`z ifodasini topgan. Shuningdek, ta'lim standarti o`zining tuzilishiga va mazmuniga ko`ra, davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o`quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda (1 - 7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi. Dastur asosida darsliklar, metodik qo`llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. Etti yillik musiqa o`qitish davrida, o`quvchilarni go`zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo`yiladi. Yangi dastur asosida musiqa darsini sifatli, pedagogik va metodik jihatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun, o`qituvchi, ijodkor, o`z kasbini va o`quvchilarni sevuvchi, yaxshi cholg`uchi, metodika va pedagogikani puxta o`zlashtirgan inson bo`lishi kerak. Musiqa ta'limining milliy asosini

tarkib toptirishda, fortepiano asbobi bilan birgalikda, o`zbek xalq cholg`u asboblariidan ham foydalana olishi zarur.

Shuningdek, o`zbek xalq musiqa merosimizni tarixi va hozirgi kun talablarini kuzatib, o`rganib borishi shart. Chunki, maktabda musiqa ta`limining asosiy maqsadi o`quvchilarda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Musiqa o`qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirishda ko`rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan ham foydalani yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo`llagan holda dars o`ta bilishi kerak. Musiqa darsida musiqa faoliyatlarini oddiydan – murakkabga o`tish tamoili asosida o`zaro mantiqiy bir butunlikka erishish o`qitishning rivojlantiruvchi, ta`limiy va tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirish zarur.

Umumta`lim maktablarida o`quvchilarni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashda maktabda o`qitiladigan barcha fanlar qatori musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa inson his tuyg`ularini, orzu - istaklarini o`ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va hissiyotlariga faol ta`sir ko`rsatadi.

Musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi, o`quvchilarda musiqaga qiziqish uyg`otish va musiqiy tassurotni tarkib toptirish, musiqani san`at sifatida ongli idrok etishdan iborat. Natijada bolalarda musiqa haqida mushohada qilishning boshlang`ich asoslari vujudga keladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: O`quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqani (tinglash) idrok etish malakasini o`stirish, kuylash malakasini o`stirish, musiqaning badiiy - g`oyaviy mazmuni vositasida ahloqiy - estetik tarbiyalash.

## **Musiqqa o`qituvchisining professional tayyorgarligiga talablar**

Zamonaviy musiqqa madaniyati darslarini badiiy - pedagogik asar deb hisoblash mumkin, chunki uni o`qituvchi o`z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy - pedagogik g`oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o`quvchilarda musiqqa qiziqishni o`stirish, ularga musiqqa san`ati va madaniyatining ma`naviy mavzusini singdirish, zamonaviy musiqali - ijodiy faoliyatini anglash – bular hammasi o`qituvchining ijodiy sohasiga kiradi.

Umumiy ta`lim maktabidagi musiqqa o`qitishning asosiy maqsadi - o`quvchilarni g`oyaviy - hissiy va ahloqiy tarbiyalash, ularda musiqqa madaniyatini tarkib toptirish orqali umumiy madaniyatining yuksalishiga ta`sir ko`rsatishdan iboratdir. Shuning uchun ham ta`lim tizimi musiqqa tarbiyasini yosh avlodni kamol toptirishning muhim omili sifatida o`z ichiga olgan. Xususan musiqqa bilan shug`ullanish badiiy bilish faoliyati bo`lib: g`oyaviy e`tiqodni shakllantiradi, axloqiy tarbiyalaydi, shaxsdagi qiziqishlarning psixologik maqsadi va o`ylashini belgilaydi, ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi, tashkil etadi va birlashtiradi, ijtimoiy faollikni tarbiyalaydi, san`atni idrok etish, his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, estetik va musiqiy didni o`stiradi, aqliy kamolatni, ijodiy faollikni, tafakkurni, o`quvchilarning o`ziga xosligini kuchaytiradi, fikr doirasini kengaytiradi, zarur musiqiy bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qiladi, bo`sh vaqt muammosini hal qilishda yordam beradi.

Shuning uchun maktabdagi «Musiqqa» fani o`quvchilarni faqat axloqiy - estetik jihatdan emas, balki har tomonlama tarbiyalash va kamol



toptirishning yo`li, deyish mumkin.

Musiqqa o`qituvchisining faoliyati faqat musiqqa darslarini o`tish bilan cheklanmaydi, uning vazifasiga musiqqa to`garaklari, musiqqa lektoriylari va klublarini tashkil etish, musiqqa kechalari hamda tanlovlarini tayyorlash va o`tkazish, maktab havaskorligini nazorat qilish, filarmoniyaga madaniy yurishlar uyushtirish, musiqqa teatri ishini yo`lga qo`yish kabi tadbirlar ham kiradi. Kattalarga: ota-onalar, o`qituvchilar va etakchilarga musiqqa bilimlari berish ham shular jumlasidandir.

Musiqqa o`qituvchisi o`zining kasb - korlik faolitini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun ana shu faoliyatga doir hamma ishlarni bajarishi shart va bular, bizningcha, quyidagilardan iboratdir:

1. Ta`lim - tarbiya jarayonining hamma qismlarini belgilash ishlari:
  - a) tashkiliy - mazmunli ish (musiqqa bo`yicha ta`lim va tarbiya ishlarining mazmunini tanlash);
2. Aloqa ishlari - o`qituvchining ta`lim - tarbiya jarayonida o`quvchilar bilan muloqoti, shuningdek, maktab pedagoglar jamoasi, ota - onalar va jamoatchilik bilan o`zaro hamkorligi.
3. Ta`lim - tarbiya jarayoning rejasini amalga oshirishga doir tashkiliy ishlar (o`zining bayonini, o`quvchilarning xatti - harakati va faoliyatini, ta`lim - tarbiya jarayonining har xil shakllarini uyushtirish).
4. Har bir o`quvchining o`sishini va o`quvchilar jamoasining takomillashuvini oldinroq ko`ra bilishdan, o`g`il - qizlarning umumiy hamda maxsus (musiqiy) kamol toptirish vazifalarini belgilash va izchil amalga oshirishdan iborat rivojlantiruvchi ishlar.

5. O`quvchilarda ijtimoiy - ahamiyatli qadriyatlarning muayyan sistemasini: g`oyalar va qadriyatlarni shakllantirishga, ehtiyojlar, qiziqishlar, didlarni shakllantirishga faoliyat va xatti - harakat sabablarini, dunyoqarash va dunyoni his etishni belgilashga doir yo`naltiruvchi ishlar.
6. Pedagogik jarayonlar va hodisalarni o`rganish bo`yicha tadqiqot ishlari. Pedagogik faoliyat o`qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:
  - a) o`quvchilarning qobiliyatlarini, musiqaga qiziqishlarini, musiqiy bilimlarini, ular ijrochilik ko`nikma va malakalarini o`zlashtirishlarining dinamikasini o`rganishni;
  - b) o`qitish usullarini o`rganish, samarali usullarni hamda ularni muvaffaqiyatli qo`llash sharoitlarini aniqlashni;
  - v) usuliy qo`llanmalar va ishlanmalarni o`rganishni (ularni tanqidiy baholashni);
  - g) o`zining va boshqa o`qituvchilarning ijobiy hamda salbiy tajribalarini tahlil qilishni; ishning samarali usullari va shakllarini umumlashtirish hamda ulardan o`z amaliyotida foydalanishni;
  - d) muntazam ravishda pedagogik kuzatishlar va tajribalar o`tkazishni
7. Ijrochilik ishlari: o`quvchilarga, maktab jamoalariga, ota - onalarga, jamoatchilikka o`zining ijrochilik san`ati bilan badiiy ta`sir ko`rsatishdan iboratdir. Bu ishlar faqat turli musiqiy faoliyatda (qo`shiq aytishda, dirijorlik qilishda, asboblarni chalishda, ansamblda) ijrochilik mahoratini egallashni emas, balki

o`quvchilarning ijrochilik faoliyatini boshqara olishni ham taqozo etadi.

8. Musiqiy - estetik bilimlarni, o`tmishdagi va hozirgi musiqa madaniyatining ilg`or voqealarini targ`ib qilishdan, ommani tarbiyalashning eng muhim omili sifatidagi badiiy havaskorlikni faollashtirish va hoqazolardan iborat musiqiy - ma`rifiy ishlar. Bular musiqa o`qituvchisining butun kasb - korlik va ijtimoiy faoliyatiga singiydi hamda musiqa san`atini kishining ongi va hissiyotiga mafkuraviy ta`sir ko`rsatishning, unda siyosiy, axloqiy, estetik qarashlarni shakllantirishning vositasi sifatida tushunishga asoslanadi.

Musiqa o`qituvchisi o`z fanini (musiqani) sevishi, unga ishtiyoq bilan yondashishi, kishilarni yaxshi ko`rishi, musiqa san`ati vositalari bilan o`qitish va tarbiyalashga qiziqishi lozim. Shunday qilib, musiqa o`qituvchisi bilimlarining tizimini ijtimoiy - siyosiy psixologik - pedagogik va maxsus bilimlar tashkil qiladi.

Ijtimoiy - siyosiy bilimlar o`qituvchi dunyoqarashining nuqtai nazarining poydevori, undagi kasb - korlik va maxsus bilimlarning metodologik bazasidir.

Maxsus bilimlar umumiy musiqa pedagogikasining tarixi va nazariyasini, fortepiano chalish, dirijorlik qilish, kuylashni o`rgatish usullarini ham o`z ichiga oladi. Har qanday ixtisoslikdagi pedagog uchun maxsus qobiliyatlar ham zarurki, ularsiz tegishli pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo`lmaydi.

Musiqa o`qituvchisi uchun esa musiqiy qobiliyatlar juda muhimdir. Bunday qobiliyatlar majmui ancha keng va murakkab bo`lib, bu haqda

keyinroq soʻz yuritiladi. Lekin shuni taʼkidlash lozimki, musiqiy qobiliyatlarga ega boʻlish musiqiy faoliyatning ham, bu faoliyatni musiqa tarbiyasi va taʼlimning har qanday doirasida boshqarishning ham majburiy shartidir

Oʻqituvchi musiqa darsi rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va oʻqitish shakllarini, musiqa faoliyatlarini va ularni oʻquvchilarga singdirish uchun kerakli metodlar, texnologiyalar va usullarni aniqlab, soʻng darsning stsenariysini tuzadi. Dars bir umumiy sxemada tuziladi. Har bir faoliyat turlari: musiqa tinglash, jamoa boʻlib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar, musiqa cholgʻu asbobiga joʻr boʻlish, oʻyinlar – bir - biri bilan bogʻlanib, uzviylashtirilgan boʻlishi kerak. Bunda oʻquvchilarning darsda faol qatnashirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod usullari va yoʻllari ishlatiladi.

Musiqa oʻqituvchi deyarli har kuni oʻquvchilar bilan uchrashadi, savol javob qiladi, ularning yaxshi ishlarini maʼqullaydi, bilimini baholaydi, nojoʻya xatti - harakatlari uchun tanbeh beradi. Albatta musiqa oʻqituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, subʼektivlik alomatlari mavjud. U hammaga aynan birdek juda toʻgʻri munosabatda boʻla olmasligi mumkin. Lekin u hamma oʻquvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil boʻlmogʻi darkor. Sinfda musiqa oʻqituvchisi yaxshi koʻradigan, yomon koʻradigan, oʻquvchilar bor degan taʼsurot tugʻilmasligi kerak.

Xullas, obroʻ oʻqituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obroʻ kishining chuqur bilimi, yuksak ahloqiy sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan taʼsir nufuzidir.

#### **4. Pedagogik mahorat o`qituvchining ijodiy faoliyati.**

Musiqiy pedagogik faoliyat o`z mohiyatiga ko`ra ijodiy xarakterga ega. Ma`lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug`iladi. Musiqa o`qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog`liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyo qarashini, e`tiqodini, ongi, xulq - atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo`ysungan son - sanoqsiz pedagogik masalalar echish jarayonidir. O`qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usullarida, ularni hal qila olish yo`llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi.

Musiqiy pedagogik ijodkorlik manbai – musiqiy pedagogik tajribalardir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg`or musiqiya pedagogik tajriba deganda biz musiqiya o`qituvchining o`z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o`quvchilar ta`lim - tarbiyasining yangi, samarali yo`l va vositalarini qidirib topishni tushunamiz. Ilg`or pedagogik tajriba musiqiya o`qituvchisi tomonidan qo`llanadigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o`quv - tarbiyaviy ishlarning eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg`or musiqiy pedagogik tajribani o`rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, musiqiya o`quv - tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o`zgarishlar kiritadi, o`quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish, yangi urinishdagi o`quv jarayonini model-lashtirish muammolarini echishga sabab bo`ladi.

Ijodiy ishlaydigan musiqiya o`qituvchisi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o`qitish va tarbiyalash, ilg`or musiqiya o`qituvchilari

tajribalarini o`rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko`nikma malakalariga ham ega bo`lishi zarur.

Musiqiy - pedagogik faoliyatning tizimi turli sabablar bilan vujudga keladigan muayyan ishlardan, shuningdek, bu ishlarni ma'lum maqsadlarda amalga oshirishning vositasi sifatidagi harakatlar va operatsiyalardan tashkil topadi.

Musiqiy - pedagogik faoliyatning xususiyati uning tarkibiy qismlari qatorida badiiy - obrazli komponentning mavjudligidan iborat bo`lib, bu komponent musiqa o`qituvchisi faoliyatining umumiy tizimida mustaqil kategoriya hisoblanadi.

O`qituvchi o`z shogirdiga asarlarning xususiyatlarini anglab olishni, asarda yashiringan mazmun va g'oyani tushunishni, uning musiqiy tilining mohiyatiga kirib borishni, ishning usul va yo`llarini o`zlashtirishni o`rgatishi kerak. Bularning hammasi musiqaga muhabbatni, unga qiziqishni va cholg'u asbobi ijro etish ehtiyojini tarbiyalashga qaratilgan bo`ladi. Mana shu oxirgi maqsadga erishish uchun o`qituvchining o`zi musiqani astoydil va behad sevishi, o`zidagi ishtiyoqi hamda tajribani boshqalarga ham berishga intilishi zarur. Lekin buning uchun u etarli darajada sezgir bo`lishi va o`z sinfida bir necha marta o`rganilgan asar ustida har safar ishlashda o`quvchilar bilan birgalikda yangi talqin vujudga kelgandek his qilishi kerak.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyot musiqa o`qituvchining ijodkor bo`lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o`quvchilarga etkaza olishi talab kiladi.

Bu ahloqiy e'tiqod musiqa o`qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o`quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida,

muomalasida, kundalik turmushda o`zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy ta'sir o`tkazilishida ko`zga tashlanadi.

Musiqqa pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy ahloq kategoriyalariga mos keladi va ularni musiqqa o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq tarzda bir qadar aniqlaydi. Pedagogik etikada gumanizm, adolatlik, vijdonlilik, halollik, yaxshilik qilish kabilar musiqqa o`qituvchilik faoliyati bilan bog`liq ravishda ta`lil qilinadi.

Ahloq nazariyasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi. Yaxshilik-ahloqiy ijobiy fazilat bo`lib, normativ etikaning idealini, individual ahloqda ijobiy-xulqiy fazilatlarni mazmunini inson faoliyati yoki biror xatti-xarakatiga ijobiy munosabatining yig`indisini aks ettiradi.

Yaxshilik kishining ongi va ahloqiy amaliyotida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib jamiyat va shaxsga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan tushunchadir.

Musiqiy pedagogik etikada yaxshilik tushunchasi o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq holda aniqlashtiriladi. Unda musiqqa o`qituvchi va o`quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o`quvchi maqsadining birligi, muallim va o`quvchi maqsadining birligi, ta`lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihoh, mehribon bo`lishini taqozo qiladi. Yaxshilik qaror topishi uchun yomonlikka murosas bo`lishi lozim. Yaxshi istak bilan xush muomalalik, yaxshi qiliq, yaxshi hatti-xarakatning birligi zarur.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri mas`uliyatdir. Musiqqa o`qituvchining mas`uliyati – mas`uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va musiqqa ta`lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o`z ichiga oladi. O`qituvchi zammisiga

bola shaxsi har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yukladi. Muallim o`quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnat tayyorlashi lozim.

Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, individual munosabatda bo`lishi, unda mavjud bo`lgan ijobiy ahloqiy sifatlarni avaylab o`stirishi darkor.

Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o`qituvchilar jamoasi bilan yolg'iz o`zi ish olib boradi. Bunday sharoitda musiqa o`qituvchining masouliiyati uning xuquqini tartibga solib turadigan boshqaradigan kuch, o`quvchilarga ta'sir o`tkazish darajasining asosiy mezoni hisoblanadi.

Pedagogik odobga ega bo`lgan o`qituvchi o`quvchilar orasida obro` qozonadi. O`qituvchi qanchalik ko`proq obro` qozonsa, ta'lim-tarbiya mohiyati shunchalik muvaffaqiyatliroq bo`ladi va aksincha, o`qituvchining obro`yi qanchalik past bo`lsa, uning bolalarga ta'sir shuncha bo`sh va o`quvchilarni voyaga etkazish jarayoni ham shuncha zaif bo`ladi.

Musiqiy pedagogik faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchi mahoratli ravishda o`tlayotgan musiqa ta'limiy-tarbiyaviy tomonlarni tushunarli qilib bolalarni faoliyatini dunyoqarashda tabiat va jamiyat faoliyatidagi o`zgarishlardagi ko`nikmalarni malakalarga aylantiradi.

E'tiqod, odob, fuqarolik burchini anglash o`qituvchining asosiy sifatlaridan biridir. Maktab o`qituvchisini o`zi targ'ib qilayotgan idealning fazilatlarini shaxsiy namunasida ko`rsatish kerak.

Bolalarga mehr-muhabbat o`qituvchining eng muhim fazilatidir. Bu bolalarning hamma qiliq-qilmishlarini kechirish ularga xushomadguylik qilish emas, balki talabchanlik va qattiqqlik, adolatlik bilan qo`lgan mehr-muhabbat bo`lib ana shu sifatga ega bo`lgan shaxs o`zining ko`p vaqtini



va kuchini bolalarga bag'ishlaydi. U zarur vaqtda istaklarini qurbon qilib, bolalar manfaatini yo'lida ehtiyojlarini cheklashga tayyor turadi.

Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini anglash o'qituvchi shaxsiga xos sifat, zero xaqiqiy pedagog to'la maonodagi jamoatchi bo'lib, bolalarga hayotda ijtimoiy faol holda turishining amaliy namunasini ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Musiqqa o'qituvchisi shaxsining xususiyatlari.

Musiqqa o'qituvchisining ruhiy - pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni.

Pedagog, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota - onalar va bolalarning izzat - hurmatiga sazovor bo'lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, kishilarni tanlab olish kerak.

Musiqqa pedagogik faoliyat har bir o'qituvchidan mahoratni talab etadi. Har qanday musiqqa o'qituvchi buni hohlaydi lekin bunga erishish uchun o'qituvchidan o'zi o'tadigan fani metodikasini yaxshi bilishi ish stajiga ega bo'lishi va texnikasiga chuqur e'tibor berishi bilan amalga oshiriladi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir musiqqa o'qituvchi musiqiy pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Musiqiy pedagogik mahorat

egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo`ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo`lishi mumkin.

O`quvchilarni xam ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o`rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun musiqa o`qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. Musiqa o`qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to`playdi, tahlil qiladi. Ular asosida xulosalar chiqaradi. U musiqa fan xulosalaridan o`zining amaliy faoliyatida foydalanishi jarayonida hozirgi zamon o`qituvchisi uchun zarur bo`lgan shu muhim fazilatlarni egallaydi.

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to`xtab qolmaydi, uning g`ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi bu tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham musiqa madaniyati o`qituvchisi, o`quvchilarni ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatining shakillantirishi, milliy g`ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini, ijodiy mahoratning, nafosatda, badiiy didni o`stirishi, fikr doirasini kengaytirishi mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakillantirib borish lozimdir. Biz bilamizki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson manfatlari tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi.

Musiqa madaniyati o`qituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval birinchisi ta'lim – tarbiya sohasida ortirilgan tajribalarni o`rganishi lozim. Bu albatta ko`pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Ilg`or o`qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o`qituvchilarning faoliyatlari ham o`rganib boriladi. Chunki tajribalarni o`rganish

jarayondagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o`quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarini o`rganish metodlardan foydalaniladi, masalan: kuzatishda o`rganish lozim bo`lgan pedagogik hodisani ma`lum maqsadda kelib chiqqan holda kuzatish bayonnomasini olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib boradi.

Mahoratli o`qituvchi barcha o`quvchilar kabi maktab hujjatlarini o`rganishi lozim. Bunga o`qituvchilarning shaxsiy delolari, metodistning xabarlari, kundaliklar, majlis bayonnomalaridan xabardor bo`lishi nazarda tutiladi. Shuningdek darsdan tashqari musiqiy to`g`arak ishlarini olib boradi.

Qadimgi Gretsiyada musiqa yordamida donolikni, mardlikni tarbiyalashi mumkin deb hisoblangan. Haqiqatdan har bir san`at insonga ruhiy ta`sir ko`rsatadi. Musiqa aynisa emotsional ta`sir etishda katta kuchga ega. Shuning uchun ko`pgina davlatlarda musiqadan ko`p yo`nalishlar bo`yicha keng foydalaniladi.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi - talaba faoliyatiga yangilik kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi. Bu metodlarninig o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchi  
- talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi bilan amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bogliq bo`lib qolmasdan, balki o`qitish jarayonida qo`llanilishi zarur bo`lgan kompyuter, masofali o`qitish, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

## **5. Darsga tayyorgarlik ko`rish va dars o`tishga yondashuv.**

Musiqqa o`qituvchisi yuksak madaniyatli, o`z kasbiga cheksiz sadoqatli, ilg`or pedagogik tafakkur egasi bo`lmog`i lozim. U o`zi uzliksiz kasbiy va madaniy rivojlanish qobiliyatiga ega bo`lishi shart. U pedagogika, ruhshunoslik, musiqqa o`qitish metodikasi, estetika nazariyasi fanlaridan xususan musiqqa o`qitishni chuqur bilishi va malakalar egasi bo`lmog`i darkor. Ayniqsa, unda musiqqa o`qituvchisi ixtisosi zarur me`yorida cholg`uchilik, honandalik va musiqqa nazariyatchiligi sifatleri mujassam bo`lmog`i lozim.

Musiqqa o`qituvchisi pedagog muloqot ustasi bo`lishi har qanday vaziyatda ham pedagogik ta`sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo`lmog`i lozim. Hozirgi musiqqa o`qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg`or tajribalar shaydosi izlanuvchan va ijodkor bo`lib musiqqa o`qitishlar yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog`i lozim. U musiqqa ta`lim tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog`lab, boyitib olib borishi darkor. Izlanuvchan, ijodkor o`qituvchilar tajribasi va kashf etgan yangi usullari musiqqa ta`lim-tarbiyalar doimiy ravishda rivojlanishlar asosiy tayanchi va ilxom manbaidir. Musiqqa o`qituvchisi san`at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy ma`rifiy ishlarning sardoridir.

Musiqqa o`qituvchisi musiqqa madaniyati darslariga quyidagi talablarga muvofiq tayyorgarlik qilishi kerak:

- Har bir dars ma`lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo`lishi kerak.
- Har bir dars o`qituvchilarni hayot tajribasiga va amaliyot bilan bog`langan bo`lishi kerak.

- Har bir dars xilma - xil metod, usullar vositalardan foydalanilgan holda olib borilishi kerak.
- Darsga ajratilgan har bir daqiqadan unumli foydalanishi lozim.
- Darsda o`quv materiallarining mazmuniga oid ko`rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, texnika vositalar va kopyuterlardan foydalanish lozim.

Har bir musiqa darsning muvaffaqiyati ko`p jihatdan o`qituvchining mashg`ulotni to`g`ri tashkil etishga bog`liq. Darslarga tayyorlanish jarayonida foydalanadigan musiqiy asarlar, bolalar didiga, yoshiga, qiziqishi, ovoz diapazoniga hamda fikrlash qobiliyatlariga mos kelishi zarur. Bu o`quvchilar orasida o`zaro bir-biriga xurmat, do`stlik alomatlarini tarbiyalash bilan birga, musiqadan zavq, madaniy ozuqa olish kabi tuyg`ularni tarbiyalaydi. Shu bilan birga o`qituvchining ham sodda, ham ovozda ijrochilikka xos uslubi alohida o`rin tutadi.

Ko`rinib turibdiki, yuqoridagi maqsad va vazifalar mazmunan bir soatlik dars samaradorligini oshiradi va o`quvchilarni musiqa darsiga qiziqishi, bilim va ko`nikmalarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatini, faolligini takomillashtiradi. Musiqa darslari o`quvchilarni yalpi tarzda qamrab olish bilan birga, har qaysi o`quvchini individual xususiyatlarini va mavzuni o`zlashtirish darajasini hisobga olish lozim. Har bir darsda mavzuning mazmunidan kelib chiqqan xolda pedagogika va axborot texnologiyalardan foydalaniladi. Bunda o`qituvchining tashqi ko`rinishi, nutq madaniyati mavzu mazmunini kay tarzda o`quvchilarga etkazib berishiga bog`liq.

O`qituvchi sinfni o`ziga jalb etib, yangi mavzuni eritishi uchun, uning jonli ijrosi, ovozi, mimikasi, ko`rgazmali qo`rollar, tarkatma

materiallar, texnika vositalar erdam bera oladi. Albatta o`qituvchi o`z fikrini asar tug`ridasidami, eki musiqa savodimi, ishonch bilan dalillar bilan isbot qilib berishi zarur. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`sir o`tkazini uchun o`qituvchi maydonga tashkilotchi bo`lib tushadi. O`quvchilarni har bir kichik narsaga bo`lsa ham, e`tiborini jalb qilib, fikrlashga va savollarga javob berishga o`rgata boshlaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari qo`vnoq, o`yinqaroq, serharakat bo`lishadi. Shuni xisobga olgan o`qituvchi, ularni toliqtirmasdan dars faoliyatlarini tez-tez o`zgatirib, ularni diqqatini e`tibordan chetda koldirmasligi, ularni nazorat qilib, turli savollar, xarakatlar bilan musiqani idrok etishga o`rgatib borishi lozim. Bunday munosabatlar o`quvchilarda o`ziga ishonchni, xozir javoblikni hamkurlikni tarbiyalaydi. O`rta sinflarda esa, musiqa o`qituvchisi o`quvchilar uchun do`st sifatida namoen bo`lishi kerak ularga beradigan vazifalarni moxirlik, ishonch, ma`suliyat bilan tanishtirishi kerak.

O`qituvchi o`quvchilar diqqat e`tiborini yanada qozonish, darsga faol katnashish, mustaqil fikr yurita olishi uchun darsdan tashqari paytda ham, ularni ko`zatishi, to`garaklarga jalb etish uchun, ular bilan turli tadbirlarda katnashishi, teatrlarga borishi tarbiyaviy soatlar o`tkaziib, oilasi bilan ham muloqotda bulishi yaxshi natijalar beradi.

Musiqa pedagogik faoliyat har bir o`qituvchidan mahoratni talab etadi. Har qanday musiqa o`qituvchi buni hohlaydi lekin bunga erishish uchun o`qituvchidan o`zi o`tadigan fani metodikasini yaxshi bilishi ish stajiga ega bo`lishi va texnikasiga chuqur e`tibor berishi bilan amalga oshiriladi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir musiqa o`qituvchi musiqiy pedagogik mahoratga ega bo`lishi zarur. Musiqiy pedagogik mahorat

egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo`ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo`lishi mumkin. O`quvchilarni xam ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o`rgata olishini talab qiladi.

Shuning uchun musiqa o`qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. Musiqa o`qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to`playdi, tahlil qiladi. Ular asosida xulosalar chiqaradi. U musiqa fan xulosalaridan o`zining amaliy faoliyatida foydalanishi jarayonida hozirgi zamon o`qituvchisi uchun zarur bo`lgan shu muhim fazilatlarni egallaydi.

Dars o`quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta`lim shakli hisoblanadi. O`tkizilgan dars o`quvchilarni ham, o`qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun ma`lum darajada umumiy ba`zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars predmet kalendar dasturidagi o`z o`rniga ega bo`lishi, maqsadi aniq belgilangan bo`lishi kerak. Dars o`tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo`lgan bilim, iqtidor va ko`nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko`nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma`qul bo`ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo`lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo`yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o`quv materialini sistemali ravishda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, o`quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda amalga oshirilishi kerak. Darsga qo`yiladigan tashkiliy talablar:

Mavzuni (kalendar) rejalashtirish asosida dars o`tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo`lishi, dars o`z vaqtida boshlanib, o`z

vaqtda tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o`quvchilar ongli intizomi ta`minlanmogi lozim. Dars tashkil etishda turli - tuman vositalardan, o`quv-texnik va ko`rgazmali qurollardan foydalanish ko`zda tutiladi. Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo`lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo`ladigan ko`rinish tarzida rejalashtirish va o`zgarmaydigan qotib qolgan namuna asosida o`tkazaverish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o`tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart – sharoitlari, shuningdek, o`qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta`sir ko`rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan hatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma - yon sinflarda o`tkazilganda ham o`zining o`ziga xos jihatlariga ko`ra farq qiladi. Darsda har doim o`qituvchining maxsus «Pedagogik yondashuv tarzi» ni ko`rish mumkin. Masalan: kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko`rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o`quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish. O`rganilgan material yuzasidan o`quvchilardan so`rash, o`qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o`rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish. Darsning yutug`i va uning natijalari nafaqat o`qituvchining tayyorligiga, balki o`quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog`liq bo`ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko`pgina o`qituvchilar o`zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e`tibor bermaydilar. O`qituvchi darslarda o`quvchilarga bo`lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro`sini saqlagan xolda yondashoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan xolda olib borishi lozim. Darsda o`quvchilarga o`qituvchining murojaati shakli ham farqsiz



emas. O`quvchilarni o`z ism - shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqrokdir. Pedagog sifatida o`zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o`qituvchi tomonidan o`z hissiyotini aks ettirishni inkor etmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, xushyor, ko`nglichan bo`libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo`lishi ham kerak. O`qituvchining pedagogik optimizmi, uning o`quvchilarga munosabatidagi ishonch, o`quv faoliyatini tashkil etishning turli - tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o`quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko`rsatishga tayyor turishlik - bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`ladi, o`quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

## **Xulosa**

Hozirgi davrda fan va madaniyatning eng so`ngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo`lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma`naviyat va ma`rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to`g`risida»gi farmonda ko`rsatilgandek, jamiyatda yuksak ma`naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, kishilarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an`analarimizga umuminsoniy qadriyatlarga, vatanga muhabbat, istiqlol g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning hal qiluvchi omilidir.

Istiqlol sharofati bilan O`zbekiston respublikasida keyingi yillarda muhim ijtimoiy siyosiy o`zgarishlar ruy berdi. Xususan ta`lim to`g`risida qonun qabul qilinib, to`qqiz yillik umumiy o`rta ta`lim tizimi joriy etildi. Ta`limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o`quv fanlari, shu jumladan musiqa darslari bo`yicha ham yangi o`qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bu holatlar milliy musiqa ustivorligi nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilgan dasturlarda ham o`z aksini topdi.

Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o`quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuzilishi zarur. Mashg`ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik jihatdan o`ziga xosligi, shuningdek ish rejaları fan mantiqini hisobga olgan holda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko`ra farqlanishi lozim.

Musiqa darslarini takomillashtirish dunyo musiqachilari, pedagog –

kompozitorlarini hozirda ham o`ylantirib kelayotganligi va bu masalaning etarlicha o`rganilmaganligi va dolzarbligi yana bir qancha ilmiy izlanishlar uchun manba bo`lib xizmat qilishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agirmendi A. Doshkolnoe muzikalnoe vospitanie. M., 1989.
3. Vengrus L. Vokalno-xorovaya rabota s doshkolnogo vozrasta. L., 1988.
4. Vetlugina N.A., Keneman A.V. Teoriya i metodika muzikalnogo vospitaniya v detskom sadu. M., 1983.
5. Vetlugina N.A. Razvitie muzikalnix sposobnostey doshkolnikov v protsesse muzikalnix igr. M., 1988.
6. Vetlugina N.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v detskom sadu. M., 1973.
7. Voprosi metodiki muzikalnogo vospitaniya detey. M., 1985.
8. Vospitanie muzikoy. M., 1991.
9. Maktabgacha ta'lim. Innovatsion faoliyatning to'rt bosqichi. P. Saliyeva. 1 -son 2013y
10. Maktabgacha ta'lim mustaqil fikrlash o'rgatish. T. G'afforova 9-son 2012y.
11. Matonis V. Muzikalno-esteticheskoe vospitanie lichnosti. L., 1988g.
12. Soliyev N. «Musiqqa savodi alifbosi». T., 2003y.
13. Rahimov A. «Uchinchi ming yillikning bolasi», T., 2002y.
14. Rahimova R. «Tarbiyachiga 1001 maslahat», Toshkent, 2007y.
15. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida shaxsini shakllantirish. 2006 y.
16. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T., 2005 y.,
17. Soipova D. Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. T., 2009y

18. Sharipova G., Yakubova Sh. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa

o'qitish metodikasi». T., 2007y.

**Internet manzillar**

[belcanto.ru](http://belcanto.ru),

Detskaya muzika. muzikalnaya ensiklopediya v 6 tomax (1973 -1982)

<http://Yandex.ru> .Astashova E. A., Texnologicheskaya gimnaziya №13, g.

Minsk,t ul.Odintsova,32, ind. 220136, t. 2586203